

GLOBALLASHUV JARAYONIDA ONA TILINING MAVQEI

Maftuna Hasanova

Namangan viloyati Yangi Namangan tumani

63-maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning bugungi mavqeyi, milliy boylik sifatida uning ahamiyati va zamonaviy davrda asrash bo'yicha dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: O'zbek tili, ta'lim, tarbiya, islohot, maktab, dars, madaniy, ma'naviy.

Davr va zamon o'zgarishi, hayotdagi taraqqiyot inson ongida ham o'sish, yangilanish ro'y berishiga olib kelishi hayotiy haqiqatdir. Bugungi zamondoshlarimizning ongi, dunyoqarashini bundan 20 yil oldingi hayot bilan qiyoslaydigan bo'lsak, oradagi katta taf ovutni sezish qiyin emas. Xalqimiz hayotidagi mana shu jarayon mamlakatimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lib, istiqlol tuf ayli siyosiy, iqtisodiy qaramlikdan, ma'naviy-ruhiy qullikdan ozod bo'ldik. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy islohotlar qatorida zamonlar sinovidan o'tgan madaniy-adabiy merosimizni xalqqa va yoshlarga yetkazish, qadriyatlarimiz va an'alarimizni qayta tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.

Aynan bugungi kunda ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va maf kuralardan saqlashni sharoit taqozo etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda aholining birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun keskin kurash borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, f arzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rif iy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur", deya bejizga aytmagan edilar.

Bugun zamon talabi, ertaga bajarilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish zarurligi taqozo etayotganini ko'rsatdi. Davlatimiz rahbari uzluksiz ta'limni tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo'lishi, hamda uning yuksak ma'naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta'kidlar ekan, Davlat ta'lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e'tiborni qaratdi.

Hozirgi xalqaro globallashuv sharoitida, har bir mamlakatda tillarning rivojlanishi va shu mamlakat hududida qo'llanishi bo'yicha ma'lum strategik yo'nalishlar ishlab chiqildi. O'zbekistonda ham tillarning rivojlanishi va qo'llanishi yuzasidan ma'lum bir yo'nalishlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-oktabr kuni 'O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida'gi f armonni imzoladi. Unga binoan, 21-oktabr sanasi O'zbekistonda "O'zbek tili bayrami kuni" deb belgilandi.

O'zbek xalqining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixdan ma'lumki, xalqimiz asrlar davomida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar olib borgan. Vatanimiz hududidan Buyuk ipak yo'lining o'tganligi ham boshqa xalqlar bilan aloqalar olib borishga yana bir sabab bo'lgan. Albatta bu aloqalar o'zbek tiliga, uning rivojlanishiga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'zaro ta'sir tilning bir qator bo'limlariga, jumladan, fonetika, leksika va grammatikada yaqqol aks etadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining bir qator ildizlari bor. Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlari, tarixiy taraqqiyoti bir qator o'zbek tilshunos olimlari tomonidan o'rganilgan. Izlanishlar sabab tilimizning rivojlanish bosqichlari bir necha davrlarga bo'lindi:

Eng qadimgi turkiy til- VII asrgacha bo'lgan davr

Qadimgi turkiy til- VI-XI asrlar

Eski turkiy til- XI-XIII asrlar

Eski o'zbek adabiy tili- XIV-XIX asrlar

Yangi o'zbek adabiy tili- XIX asrning oxiri- XX asrning boshlari.

Bugun o'zbek tilining bor bo'y-bastini, boyligini ko'rsatish va kelajak avlodning undan to'la bahramand bo'lishi uchun izohli va imlo lug'atlari, umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari uchun alohida turli nomlarda lug'atlarning va barcha soha vakillari uchun o'zbek tilining onomastik lug'atlarini yaratishga xizmat qiladigan tadqiqotlarni yaratilishi, qo'shni mamlakatlar va qardosh turkiy xalqlar tillari bilan qiyoslash hamda lug'atlar bilan ishlash imkoniyatini yuzaga chiqarish va nutq madaniyati bilan bog'liq muammolarga alohida e'tibor qaratishi, Vazirlik va idoralar rahbarlari hamda xodimlarining "Davlat tilida ish yuritish asoslari" bo'yicha malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi joriy etilishi, respublika tilshunos olimlari tomonidan fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, diplomatiya, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, harbiy va shu kabi sohalarda o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirishga doir tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqilishi, zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etishga, atamalarning elektron lug'ati va mobil ilovalarini yaratish ishlariga ahamiyat qaratilayotganligi tilimizga bo'lgan ehtiromning yorqin namunasi sanaladi.

Xulosa o'rnida aytganda, til millatning ma'naviy-ruhiy boyligi, mulki ekan, uni e'zozlash, yuksalishi, sofliigi, boyligi yo'lida kurashish, milliy qadriyat darajasiga ko'tarish barchamizning oliy burchimizdir. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini yanada oshirish haqida bosh qotirishimiz, bu yo'lda sobitqadamlik bilan amaliy ishlar qilishimiz lozim. O'zimiz ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan ona tilimizni asramas ekanmiz, millatimiz va ma'naviyatimiz kelajagini ulkan xavf ostida qoldiramiz. Ona tiliga hurmat ko'rsatish, unga e'tiborli bo'lish orqali millatimizning kelajagiga e'tibor qilgan bo'lamiz. Zotan, o'zbek tili – bu bizning boyligimiz, ornomusimiz, sha'nimiz. Demak, uni, eng avvalo, o'zimiz asrashimiz va hurmat qilishimiz kerak.

Shunday ekan, shaxs takomilida ta'lim-tarbiyaning, xususan, ona tilining o'zni beqiyosdir. Chunki yoshlar mamlakatning kelajakka, saodatga bag'ishlovchi yorug' yulduzidir. Agar bolaga vaqtida yaxshi tarbiya berilmasa, xuddi yaxshi ishlov berilmagan yerdan mo'l hosil unmagandek, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Ma'rif atparvar alloma Abdullo Avloniy bu haqida: "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", — deb bekorga aytmagan edi. Shuning uchun ham ona tili mashg'ulotlarida hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va milliy ma'naviy tarbiya berish sohalariga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratish zarur. Chunki ona tilining boshqa f'nlarga nisbatan har bir darsda milliy ma'naviy bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, har qanday nazariy materiallar o'tilgach, mustahkamlash uchun berilgan amaliy topshiriqning mazmuni biror milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz qoldirgan milliy merosimiz va tarbiyaning eng nozik masalalarini yoshlar ongiga yetkazish va singdirishda ona tilining imkoniyati katta hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Otamirzayeva S., Yusupova M. O'zbek tili. - T.: 2002.
2. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T.: «O'qituvchi», 1996.
3. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.: 2006
4. Sh.Doniyorova, S.Mamayusupova Ona tili oqitish metodikasi.Jizzax - 2013
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X.,Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: "Noshir", 2009.